



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 386 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruhiiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
<i>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</i>	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
<i>Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi</i>	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
<i>Muxitdinova Nigora Mexriddinovna</i>	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
<i>Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li</i>	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
<i>Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova</i>	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
<i>Azerbayeva Elmira Muratbayevna</i>	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
<i>Niyazova Bibiniso Boltayevna</i>	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish.....	253
<i>Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruktsiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
<i>Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	264
<i>Axrorov Xurshid Xamidovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	271
<i>G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarning geoinformatsion kompetentligini rivojlantirish muammosi tahlili	275
<i>Berdiyev Dilshod Faxriddin o'g'li</i>	
Академия Маъмуна: силиконовая долина средневековья.....	279
<i>Аъзамова Диёра Дильшодовна</i>	
Biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish yo'llari va vositalari.....	286
<i>Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi</i>	
Ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli modellashtirish vositalarini didaktik moslashtirish: integrativ ta'lim platformasi misolida.....	291
<i>Usarov Jabbor Eshbekovich</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida.....	297
<i>Umarova Gulhayo Murodiljon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	301
<i>Salayjonova Saodatjon Maxsudbek qizi, Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy o'qitish strategiyalarining nazariy-amaliy asoslari	305
<i>G'ulomjonova Mohinur Ulug'bek qizi</i>	
Формирование профессиональных компетенций педагога будущего в условиях цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта.....	309
<i>Sodikova Diloromkhon Botirjon qizi</i>	
Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish hamda uning samaradorligini statistik baholash.....	313
<i>Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna</i>	



Jadidlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi	319
Aslonov Madamin Mansurovich	
Chust va Samarqandda ekoturizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati	324
Allanov Shuxrat Qilichovich	
Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari	329
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Talabalarda maqsadga intiluvchanlik namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari va shakllanish jarayonlari	335
Babadjanova Saiyora Khushnutovna	
Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy faoliyatida stress va vaqt bosimini boshqarish usullari	340
Xalilova Soxibaxon Sadikjanovna	
Namoyishli tajriba va laboratoriya ishlari asosida o'quvchilarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik-didaktik ta'minoti	346
Isroilov Shermurod Shamsiddin o'g'li	
Xotin-qizlarda ijtimoiy-psixologik xulq-atvor strategiyalarining migratsiya turiga bog'liq differensial namoyon bo'lishi	353
Axmedova Dildora Olimjonovna	
Rus tilidagi mediamatnlar bilan ishlashda geymifikatsiya elementlarini qo'llash	359
Maxkamov Shoxjaxon Rustambek o'g'li	
Shaxsning o'zini anglash jarayonida refleksiyaning psixologik mohiyati	365
Achilova Durdona	
Bo'lajak oligofrenopedagoglar--ning praksiologik tayyorgarligining tarkibiy tuzilmasi	370
Niyozova Dिल्фуза Rustam qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interaktiv raqamli o'yinlar va vizualizatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	375
Teshaxo'jayeva Mohlaroy Shuhratxo'ja qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlashda innovasion surdo-texnologiyalar, neyro-trenajyorlar va faol praksiologik metodlarning interaktiv sinergiyasini joriy etish	380
X. I. Malikova	



XOTIN-QIZLARDA IJTIMOY- PSIXOLOGIK XULQ-ATVOR STRATEGIYALARINING MIGRATSIYA TURIGA BOG'LIQ DIFFERENSIAL NAMOYON BO'LISHI

Axmedova Dildora Olimjonovna

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti (DSc)
Sots. f. b. f. d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada xotin-qizlarda ijtimoiy-psixologik xulq-atvor strategiyalarining migratsiya turiga bog'liq holda namoyon bo'lish xususiyatlari empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda tashqi va ichki mehnat migratsiyasida bo'lgan 998 nafar xotin-qiz ishtirok etgan. Psixologik himoya mexanizmlari hamda emotsional intellekt ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinib, migratsiya sharoitining shaxsning psixologik moslashuvi va xulq-atvor strategiyalariga ta'siri aniqlangan. Natijalar ichki migratsiya sharoitida psixologik himoya mexanizmlarining barcha turlarida faollik yuqoriroq ekanligini, tashqi migratsiyada esa emotsiyalarni tushunish va boshqarish bilan bog'liq emotsional intellekt komponentlari nisbatan rivojlanganligini ko'rsatdi. Olingan natijalar xotin-qizlarning migratsiya jarayonidagi psixologik resurslarini mustahkamlash, moslashuv strategiyalarini optimallashtirish hamda psixologik xizmatlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy va empirik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mehnat migratsiyasi, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, xotin-qizlar, ijtimoiy-psixologik xulq-atvor, moslashuv strategiyasi, psixologik himoya mexanizmlari, emotsional intellekt, psixologik adaptatsiya, stress, koping strategiyalari, ijtimoiy moslashuv.

Abstract: This article presents an empirical investigation of socio-psychological behavioral strategies among women depending on the type of labor migration. The study involved 998 women participating in either internal or international labor migration. A comparative analysis of psychological defense mechanisms and emotional intelligence was conducted to identify differences in psychological adaptation associated with migration conditions. The findings revealed significantly higher activation of psychological defense mechanisms among women involved in internal migration, whereas women engaged in external labor migration demonstrated better abilities in understanding and regulating emotions. The results contribute to a deeper understanding of psychological adaptation during migration and provide a scientific basis for developing evidence-based psychological support programs, strengthening adaptive resources, and improving socio-psychological interventions for women migrants.

Key words: labor migration, internal migration, external migration, women, socio-psychological behavior, behavioral strategies, psychological adaptation, emotional intelligence, psychological defense mechanisms, stress, coping strategies, social adaptation.

Аннотация: В статье представлены результаты эмпирического исследования социально-психологических стратегий поведения женщин в зависимости от вида трудовой миграции. В исследовании приняли участие 998 женщин, находящихся во внутренней и внешней трудовой миграции. Проведен сравнительный анализ механизмов психологической защиты и показателей эмоционального интеллекта, что позволило определить особенности психологической адаптации женщин в различных миграционных условиях. Полученные результаты свидетельствуют о более высокой выраженности всех механизмов психологической защиты у женщин внутренней миграции, тогда как у участниц внешней миграции более развиты способности к пониманию и регуляции эмоций. Результаты исследования создают научную основу для совершенствования программ психологического сопровождения, повышения адаптационного потенциала женщин-мигрантов и разработки эффективных технологий социально-психологической поддержки.

Ключевые слова: трудовая миграция, внутренняя миграция, внешняя миграция, женщины, социально-психологическое поведение, стратегии поведения, психологическая адаптация, эмоциональный интеллект, механизмы психологической защиты, стресс, копинг-стратегии, социальная адаптация.

**KIRISH**

Mehnat migratsiyasi jarayonida xotin-qizlarning ijtimoiy-psixologik xulq-atvori murakkab va ko'p omilli moslashuv mexanizmlari asosida shakllanadi. Migratsiya turi shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri, mehnat faoliyatiga munosabati hamda psixoemotsional regulatsiya uslublarini belgilovchi muhim determinant sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, migratsiya sharoitlari xotin-qizlarda turli ijtimoiy-psixologik xulq-atvor strategiyalarining differensial tarzda yuzaga chiqishiga olib keladi ^[1].

Xorijiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, migratsiya jarayoni shaxs tomonidan subyektiv ravishda qanday baholanishiga qarab (xavf yoki imkoniyat sifatida), uning xulq-atvori ham mos ravishda shakllanadi. Bu holat Richard Lazarus va Susan Folkman tomonidan ishlab chiqilgan stressni kognitiv baholash va moslashuv (coping) nazariyasiga muvofiq tarzda, shaxsning vaziyatni idrok etish uslubi uning xulq-atvor strategiyalarini belgilashini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tashqi mehnat migratsiyasida bo'lgan xotin-qizlarda asosan faol, moslashuvchan va konstruktiv xulq-atvor strategiyalari ustunligi kuzatiladi. Bu guruhda adaptatsiya va emotsional komfort ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi ayollarning yangi ijtimoiy-madaniy va kasbiy muhitga moslashishda ichki psixologik resurslarni samarali safarbar eta olayotganini ko'rsatadi.

Xorijiy empirik tadqiqotlarda qayd etilishicha, til, madaniyat va mehnat munosabatlaridagi farqlar tashqi migratsiyada shaxsdan faol pozitsiya va mustaqillikni talab etadi, bu esa xulq-atvorning konstruktiv shakllarini rivojlantiradi. Mazkur holat Albert Banduraning o'z-o'ziga samaradorlik konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi. Ya'ni tashqi migratsiya sharoitida xotin-qizlar mehnat faoliyatini shaxsiy muvaffaqiyat va iqtisodiy mustaqillikka erishish vositasi sifatida qabul qiladi, bu esa ularda mas'uliyat, intizom va ijtimoiy faollikni kuchaytiradi. Natijada tashqi migratsiyada xulq-atvor strategiyalari ko'proq muammoga yo'naltirilgan, adaptiv va faol xarakter kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehnat migratsiyasining ijtimoiy psixologiyadagi markaziy masalalaridan biri - migrant shaxsda adaptatsiya jarayonlarining qanday mexanizmlar orqali kechishi va qaysi holatlarda psixologik barqarorlik buzilishi hisoblanadi. Mazkur nuqtai nazar Chikago maktabida ishlab chiqilgan bixevioral metodologiya va empirik tadqiqot an'analari bilan ilmiy jihatdan boyitildi.

U. Tomas va F. Znaneskiyning "Yevropa va Amerikada polyak dehqoni" asari mehnat migratsiyasiga oid ilk yirik empirik tadqiqotlardan biri bo'lib, unda migratsiya bir tomondan jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar oqibati, ikkinchi tomondan esa yangi o'zgarishlar manbai sifatida tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot ijtimoiy psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan "ijtimoiy yo'riqlar" tushunchasini shakllantirib, migrantning avvalgi muhitda shakllangan normalari va xulq-atvor andozalari yangi jamiyatning talablari bilan to'qnash kelganda kognitiv dissonans, ichki ziddiyat, rollar parchalanishi va emotsional notinchlik yuzaga kelishi aniqlangan ^[2].

Bizningcha, shu yerda migratsiyaning psixologik "yangi nuqta"si namoyon bo'ladi, ya'ni ko'chish fizik makonda harakat emas, balki ma'nolar, qadriyatlar va identifikatsiya tizimining qayta tashkil etilishidir. Demak, migratsiyaning ilmiy talqinida psixologik komponentni markaziy omilga aylantirmasdan turib, to'liq manzarani ko'rish mumkin emas.

M. Blinova ta'kidlaganidek, ushbu tadqiqot migratsiyaning ijtimoiy oqibatlarini sifatli metodlar asosida yoritib, yangi muhitga moslashishning ichki psixologik va ijtimoiy mexanizmlarini modellashtirish imkonini berdi ^[8]. Ayniqsa, xotin-qizlar tajribasi, ularning jamiyatda o'z o'rnini topish jarayonlari alohida ilmiy qiziqish uyg'otdi. Fikrimizcha, ushbu ilk tadqiqotlar mehnat migratsiyasi, ayniqsa xotin-qizlar migratsiyasining zamonaviy tahlillari uchun ham katta nazariy ahamiyatga ega. Chunki ular migrant shaxsidagi ichki ziddiyatlar, "eski" va "yangi" ijtimoiy yo'riqlar to'qnashuvi, oilaviy rollar transformatsiyasi va madaniy moslashuvning psixologik mexanizmlarini chuqur anglash imkoniyatini beradi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda gender o'lchovi, rollar tizimi va identifikatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda, mazkur klassik konsepsiyalar qaytadan mazmunan boyitilmoqda va amaliy tadqiqotlar bilan sintez qilinmoqda.

Chikago maktabining taniqli vakillaridan biri R. Park migratsiyani insonning ijtimoiy makonda harakatlanishga ichki moyilligi va hayot strategiyalarining o'zgarishi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy jarayon sifatida talqin qiladi ^[7].

R. Park, E. Berjess va R. Makkenzining "Shahar" asarida migratsiya oilalar, individ va sotsial institutlarning ijtimoiy makondagi mobilligining indikatori va uni jonlantiruvchi vosita sifatida namoyon bo'lishini nazariy asoslab, "marginallik" fenomenini ilmiy muomalaga kiritgan.

Marginallik - migrantning ikki madaniy dunyo orasida qolishi, ijtimoiy mansublikning ikkilanganligi, rollar va qadriyatlar to'qnashuvi bilan ifodalanadi. Bu holat ijtimoiy psixologiyada identifikatsiya muammosi, ijtimoiy mansublik va "o'ziniki - begona" kategoriyalari orqali ifodalanadi. Ayniqsa, migratsiya davrida tug'ilgan yoki



bolalikda ko'chish tajribasini boshidan kechirgan avlodda ikki xil ijtimoiy makonda yashash "ikkilamchi identifikatsiya"ni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ularning ijtimoiy qarashlari va qadriyat oriyentatsiyalari ko'p holatlarda ota-onalarining madaniy va ijtimoiy pozitsiyalaridan farq qiladi.

Fikrimizcha, bu muammo mehnat migratsiyasi psixologiyasida alohida tadqiqot obyekti bo'lib, "avlodlararo adaptatsiya asimmetriyasi" sifatida talqin qilinishi mumkin. Jumladan, kattalarda nostalgiya va qadriyatlarni saqlash tendensiyasi kuchli bo'lsa, yoshlarda assimilyatsiya va yangi normalarni qabul qilish tezroq kechadi, natijada oilaviy ichki psixologik ziddiyatlar ortadi. Shu bilan birga, mehnat migratsiyasidagi xotin-qizlarda bu jarayon yanada murakkab kechib, bir tomondan ish joyidagi yangi me'yorlarga tez moslashish talabi, ikkinchi tomondan oilaviy parvarish hamda an'anaviy rollarni saqlash kutilmasi bir vaqtning o'zida bosim qilib, rollar konflikti, aybdorlik hissi va emotsional charchashni kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy, korrelyatsion va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Empirik tadqiqotda tashqi va ichki mehnat migratsiyasida bo'lgan 998 nafar xotin-qiz ishtirok etdi. Psixologik himoya mexanizmlari hamda emotsional intellekt standart psixodiagnostik metodikalar yordamida baholandi. Olingan ma'lumotlar Mann-Whitney U testi asosida qayta ishlanib, guruhlar o'rtasidagi farqlarning statistik ahamiyatligi $p < 0,05$ va $p < 0,01$ darajalarida baholandi. Natijalar migratsiya turiga bog'liq ijtimoiy-psixologik xulq-atvor strategiyalarining differensial xususiyatlarini aniqlash asosida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ichki migratsiyada bo'lgan xotin-qizlarda esa xulq-atvor strategiyalarining nisbatan himoyaviy va reaktiv shakllari ustunligi aniqlanadi. Tadqiqot natijalarida dezadaptatsiya, tashqi nazorat va ijtimoiy maqbullikka intilish ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi ichki migratsiya sharoitida psixologik moslashuv jarayonlari murakkabroq kechayotganini ko'rsatadi. Bu holat ichki migratsiyaning ko'pincha uzoq muddatli noaniqlik, ijtimoiy maqomning beqarorligi va yaqin ijtimoiy muhit tomonidan doimiy baholanish bilan kechishi bilan izohlanadi. Ichki migratsiyada ijtimoiy nazoratning kuchliligi va tashqi lokus nazoratining ustunligi Julian Rotter nazariyasiga muvofiq tarzda, ayollarning hayotiy voqealarni tashqi omillar bilan bog'lashga moyilligini kuchaytiradi. Bu esa xulq-atvorda passivlik, moslashuvchan konformizm va ijtimoiy me'yorlarga haddan tashqari moslashish strategiyalarining shakllanishiga olib keladi.

Hayot maromi indeksining xotin-qizlardagi migratsiya turi bo'yicha farqlari solishtirilganda, metodikadan o'rin olgan barcha ko'rsatkichlarda ishonch darajasidagi ahamiyatli natijalar qayd etilganini ko'rishimiz mumkin. Metodikadan o'rin olgan barcha psixologik himoya mexanizmlarida ichki migratsiyada bo'lgan xotin-qizlarda o'rtacha ranglar sezilarli darajada yuqori. Bu holat ichki migratsiya sharoitida psixologik moslashuv jarayonlari yanada murakkab kechayotganini hamda shaxs ichki resurslarini himoya mexanizmlari orqali faol safarbar etayotganini anglatadi. Ichki migratsiyadagi xotin-qizlarda siqib chiqarish mexanizmining ustunligi stressli kechinmalar, ichki ziddiyatlar va salbiy emotsional tajribalarni ongdan siqib chiqarishga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligini ko'rsatadi. Bu holat ichki migratsiya jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy noaniqlik, moslashuv bosimi va rol ziddiyatlari bilan bog'liq bo'lib, ayollarning muammolarni bevosita anglashdan vaqtincha chekinish orqali psixik muvozanatni saqlashga intilishini ifodalaydi ($U=64130$; $p<0,01$).

1-jadval: Hayot maromi indeksining xotin-qizlardagi migratsiya turi bo'yicha farqlari (N=998)

№	Shkalalar	O'rtacha ranglar		Statistik qiymat	
		Tashqi migratsiya (N=798)	Ichki migratsiya (N=200)	U	p
1	Siqib chiqarish	479,86	577,85	64130	0,000**
2	Regressiya	469,68	618,48	56004,5	0,000**
3	Bostirish	472,63	606,70	58361	0,000**
4	Rad etish	471,10	612,81	57138	0,000**
5	Proyektsiya	469,44	619,44	55811,5	0,000**
6	Kompensatsiya	468,11	624,76	54748	0,000**
7	Giperkompensatsiya	478,23	584,36	62828	0,000**
8	Ratsionalizatsiya	477,38	587,76	62147,5	0,000**

Izoh: - $p<0.05$, - $p<0.01$.




Ichki migratsiya guruhida regressiyaning yuqori darajada namoyon bo'lishi murakkab hayotiy vaziyatlarda shaxsning oldingi, nisbatan sodda va xavfsiz xulq-atvor shakllariga qaytish tendensiyasini bildiradi. Bu mexanizm ayollarning yangi ijtimoiy muhitda o'zini himoyalash maqsadida emotsional yetuklik darajasining vaqtincha pasayishi, tashqi yordamga ehtiyojning kuchayishi bilan izohlanadi ($U=56004,5$; $p<0,01$).

Bostirish mexanizmining ichki migratsiyada ustunligi xotin-qizlarning salbiy his-tuyg'ularini ongli ravishda nazorat qilishga va ularni ochiq ifodalamaslikka intilishini ko'rsatadi. Ushbu holat ijtimoiy muhit talablariga moslashish, konfliktlardan qochish va ijtimoiy maqomni saqlab qolish zarurati bilan bog'liq bo'lib, ichki migratsiyada psixologik o'zini o'zi nazorat qilish kuchayganini anglatadi ($U=58361$; $p<0,01$)^[5].

Ichki migratsiya sharoitida rad etish mexanizmining yuqori darajasi mavjud muammolarni yoki stress manbalarini psixologik jihatdan inkor etish orqali himoyalash tendensiyasini ko'rsatadi. Bu holat ayollarning real qiyinchiliklarni tan olish ularning emotsional barqarorligiga xavf solishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda, haqiqatni qisman inkor etish orqali ichki muvozanatni saqlashga urinishini ifodalaydi ($U=57138$; $p<0,01$).

Proyektsiyaning ichki migratsiyadagi ustunligi shaxsning o'zida mavjud bo'lgan ichki ziddiyatlar, xavotir va noroziliklarni tashqi muhit yoki boshqa shaxslarga yuklashga moyilligini anglatadi. Bu mexanizm ichki migratsiya jarayonida yuzaga keladigan muvaffaqiyatsizliklar yoki ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar uchun mas'uliyatni tashqi omillarga yo'naltirish orqali "Men"ni himoyalash vazifasini bajaradi ($U=55811,5$; $p<0,01$).

Ichki migratsiya guruhida kompensatsiyaning yuqori darajasi mavjud psixologik yoki ijtimoiy cheklavlarni boshqa sohalaridagi faollik bilan qoplashga bo'lgan intilishni bildiradi. Bu holat xotin-qizlarning migratsiya jarayonida yuzaga kelgan yo'qotishlarni mehnat faolligi, ijtimoiy aloqalar yoki shaxsiy yutuqlar orqali to'ldirishga urinishini ko'rsatadi ($U=54748$; $p<0,01$).



1-rasm: Hayot maromi indeksining migratsiya turi bo'yicha xotin-qizlarda namoyon bo'lishi

Giperkompensatsiyaning ichki migratsiyada ustunligi shaxsning ichki zaiflik va ishonchsizlik holatlarini haddan tashqari faoliyat, yuqori talabchanlik yoki o'zini ortiqcha namoyon etish orqali bartaraf etishga intilishini anglatadi. Bu mexanizm ichki migratsiyada ayollarning o'z ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga bo'lgan kuchli ehtiyojidan dalolat beradi ($U=62828$; $p<0,01$).

Ratsionalizatsiya mexanizmining ichki migratsiyada yuqori namoyon bo'lishi ayollarning o'z hayotiy qarorlari va migratsiya bilan bog'liq tanlovlarini mantiqiy asoslashga bo'lgan ehtiyojini ko'rsatadi. Ushbu mexanizm salbiy kechinmalarni kamaytirish, aybdorlik hissinı pasaytirish va ichki muvozanatni saqlashga xizmat qiladi ($U=628147,5$; $p<0,01$).

Hayot maromi indeksi bo'yicha olingan natijalar ichki migratsiya sharoitida bo'lgan xotin-qizlarda psixologik himoya mexanizmlarining barcha turlarida yuqori faollik qayd etilganini ko'rsatadi. Mazkur holat ichki migratsiyaning xotin-qizlar psixik moslashuv jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatishini, shuningdek, ularning stressli hayotiy vaziyatlarga moslashishda himoyaviy-regulyativ mexanizmlarga kengroq murojaat qilishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi^[4].




2-jadval: Emotsional intellekt darajasining xotin-qizlardagi migratsiya turi bo'yicha farqlari (N=998)

№	Shkalalar	O'rtacha ranglar		Statistik qiymat	
		Tashqi migratsiya (N=798)	Ichki migratsiya (N=200)	U	p
1	Shaxslararo emotsional intellekt	500,03	497,40	79380	0,908
2	Ichki shaxsiy emotsional intellekt	499,33	500,18	79664	0,907
3	Emotsiyalarni tushunish	501,73	390,58	58016,5	0,000**
4	Emotsiyalarni boshqarish	500,84	394,15	58729,5	0,008**
5	Boshqa odamning emotsiyalarini tushunish	497,98	505,55	78590,5	0,740
6	Boshqa odamning emotsiyalarini boshqarish	498,67	502,81	79138,5	0,856
7	O'z emotsiyalarini tushunish	500,31	496,27	79154	0,859
8	O'z emotsiyalarini boshqarish	498,65	502,89	79122	0,852
9	Ekspressiyani nazorat qilish	500,86	494,09	78718	0,766

Izoh: - $p < 0.05$, - $p < 0.01$.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellektning umumiy va shaxslararo tarkibiy komponentlarida tashqi va ichki migratsiyadagi xotin-qizlar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmagan. Biroq emotsional intellektning bazaviy kognitiv-regulyativ yadrosi hisoblangan emotsiyalarni tushunish va emotsiyalarni boshqarish komponentlarida tashqi migratsiyada bo'lgan xotin-qizlarda sezilarli ustunlik qayd etilgan. Bu holat tashqi migratsiya sharoitida emotsional moslashuv mexanizmlarining yanada faol shakllanganini ko'rsatadi.

Shaxslararo emotsional intellekt bo'yicha statistik jihatdan ishonchli farqning aniqlanmasligi shuni anglatadiki, tashqi va ichki migratsiyada bo'lgan xotin-qizlar ijtimoiy-emotsional muloqotga kirishish, boshqalar bilan hissiy aloqalarni yo'lga qo'yish va ijtimoiy sezgirlik darajasi jihatidan bir-biriga yaqin psixologik resurslarga ega. Bu holat ayollarda migratsiya turidan qat'i nazar, ijtimoiy moslashuvning muhim omili sifatida shaxslararo emotsional kompetensiya nisbatan barqaror shakllanganini ko'rsatadi. Ichki shaxsiy emotsional intellekt ko'rsatkichining migratsiya turi bo'yicha farqlanmasligi xotin-qizlarning o'z ichki hissiy holatini anglash va refleksiya qilish qobiliyati migratsiya muhitiga kuchli bog'liq emasligini bildiradi. Ushbu natija ayollarning shaxsiy emotsional tajribasi va ichki psixologik tuzilmasi nisbatan barqaror ekanligini, migratsiya faqat ayrim regulyativ komponentlarga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi ($U=79380$; $p > 0,05$).



2-rasm: Emotsional intellekt darajasining migratsiya turi bo'yicha xotin-qizlarda namoyon bo'lishi

Emotsiyalarni tushunish bo'yicha tashqi migratsiyada bo'lgan xotin-qizlarda sezilarli ustunlik aniqlanishi ularning o'z emotsional holatlarini aniq identifikatsiya qilish, sabab-oqibat bog'liqligini anglash va emotsional signallarni tahlil qilish qobiliyati yuqori ekanini ko'rsatadi. Tashqi migratsiya sharoitida ayollarning yangi madaniy, til va ijtimoiy kontekstlarda yashash zarurati tufayli emotsional sezgirlik va kognitiv-emotsional tahlil mexanizmlarining kuchayishi bilan izohlanadi ($U=58016,5$; $p < 0,01$).

Emotsiyalarni boshqarish ko'rsatkichida tashqi migratsiyadagi xotin-qizlarning ustunligi ularning stress, xavotir va frustratsiya holatlarida o'z hissiy reaksiyalarini ongli nazorat qilish qobiliyati nisbatan rivojlanganini bildiradi. Bu holat tashqi migratsiyada duch kelinadigan yuqori psixologik bosim, ijtimoiy xavf va noaniqlik sharoitlari ayollarda emotsional o'zini o'zi regulatsiya qilish mexanizmlarini faollashtirganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi ($U=58729,5$; $p<0,01$).

Boshqa odamning emotsiyalarini tushunish bo'yicha farqning aniqlanmasligi xotin-qizlarning empatik sezgirliigi va boshqalarning emotsional holatini anglash qobiliyati migratsiya turidan mustaqil ravishda rivojlanganini ko'rsatadi. Bu natija ayollarga xos bo'lgan empatiya va emotsional sezgirlikning madaniy va ijtimoiy muhit o'zgarishiga nisbatan barqaror xususiyat ekanligini anglatadi ($U=78590,5$; $p>0,05$).

Boshqa odamning emotsiyalarini boshqarish bo'yicha statistik farqning yo'qligi xotin-qizlarning boshqalar hissiyotlariga ta'sir ko'rsatish, ularni tinchlantirish yoki rag'batlantirish kabi ijtimoiy-emotsional ko'nikmalari migratsiya turiga bevosita bog'liq emasligini bildiradi. Bu holat emotsional intellektning ushbu komponenti ko'proq shaxsiy tajriba va ijtimoiy rollar bilan belgilanishini ko'rsatadi ($U=79138,5$; $p>0,05$).

O'z emotsiyalarini tushunish ko'rsatkichining farqlanmasligi ayollarning o'z his-tuyg'ularini anglash qobiliyati migratsiya muhitidan qat'i nazar ichki psixologik barqarorlik bilan tavsiflanishini ko'rsatadi. Bu holat emotsional refleksiya jarayonlari ko'proq shaxsning individual xususiyatlariga bog'liq ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi ($U=79154$; $p>0,05$).

O'z emotsiyalarini boshqarish qobiliyati migratsiya turiga nisbatan sezilarli darajada farqlanmagan. Bu holat xotin-qizlarning kundalik hayotda emotsional o'zini o'zi tartibga solish ko'nikmalari yetarlicha shakllanganini va ular ichki migratsiya sharoitida ham nisbatan barqaror saqlanayotganini ko'rsatadi ($U=79122$; $p>0,05$).

Ekspressiyani nazorat qilish bo'yicha farqning aniqlanmasligi ayollarning emotsiyalarni tashqi ifodalashni ijtimoiy me'yorlarga moslashtirish qobiliyati migratsiya turiga bog'liq emasligini anglatadi. Bu holat madaniy me'yorlar va gender rollarining ekspressiv xulq-atvoriga kuchli ta'siri mavjudligini ko'rsatadi ($U=78718$; $p>0,05$).

Emotsional intellekt darajasining xotin-qizlarda migratsiya turi bo'yicha qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, tashqi migratsiya sharoitida bo'lgan ayollarda emotsiyalarni tushunish va ularni boshqarish kabi bazaviy kognitiv-regulyativ komponentlar sezilarli darajada rivojlangan. Ayni paytda emotsional intellektning shaxslararo, empatik va ekspressiv komponentlari migratsiya turidan qat'i nazar nisbatan barqaror saqlanib qolmoqda ^[6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mehnat migratsiyasi xotin-qizlarning ijtimoiy-psixologik xulq-atvori va psixologik moslashuv mexanizmlarini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligi tadqiqot natijalari bilan tasdiqlandi. Tadqiqot natijalari ichki migratsiya sharoitida psixologik himoya mexanizmlarining (siqib chiqarish, regressiya, bostirish, rad etish, proyeksiya, kompensatsiya, giperkompensatsiya va ratsionalizatsiya) barcha turlarida statistik jihatdan ishonchli yuqori faollik kuzatilganini ko'rsatdi. Bu holat ichki migratsiya sharoitining yuqori darajadagi psixologik noaniqlik, ijtimoiy nazorat va rollar konflikti bilan tavsiflanishini hamda ayollarning stressni bartaraf etishda himoyaviy-regulyativ strategiyalarga ko'proq murojaat qilishini anglatadi.

Shuningdek, tashqi migratsiyada bo'lgan xotin-qizlarda emotsiyalarni tushunish va ularni boshqarish kabi emotsional intellektning bazaviy komponentlari sezilarli darajada rivojlanganligi aniqlandi. Mazkur natijalar tashqi migratsiya sharoitida yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashish zarurati emotsional o'zini boshqarish va kognitiv-emotsional tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedova D.O. Xotin-qizlar mehnat migratsiyasi: ijtimoiy-psixologik yondashuvlar va tahlili. // Inter education & global study. 2025. Vol 3, № 4(1). B.390398.
2. Axmedova D. O. O'zbekistonda xotin-qizlar bandligi va ijtimoiy himoyalash tizimidagi islohotlar //Academic research in educational sciences. - 2023. - T. 4. - №. Periodical Collection 7.- C. 205-209.
3. Ahmedova , D., Abduvalieva, M. ., Yusupov , N. ., Yusupova , F. ., Qudratillayev, J., Qudratillayev , K. ., & Gafurova, N. . (2025). Beyond Rescue: Integrative Psychological, Legal, and Social Support for Female Migrant Survivors of Human Trafficking . Qubahan Academic Journal, 5(4), 437-465. <https://doi.org/10.48161/qaj.v5n4a2135>
4. Axmedova Dildora Olimjonovna, Migranlarning yangi sharoitlarga ijtimoiy-psixologik moslashuvining nazariy tahlili , Markaziy Osiyoda jamiyat// Gender va oila xalqaro ilmiy jurnali: 2024-yil. 3-son.
5. Axmedova Dildora Olimjonovna, Mehnat migratsiyasi feminizatsiyalashuvi: xotin-qizlar psixologiyasi va ijtimoiy identifikatsiya. Markaziy Osiyoda jamiyat// Gender va oila xalqaro ilmiy jurnali. 19-25. 10.65185/mojgo.vi.163.
6. Блинова М.С. Миграция населения: подход социологов Чикагской школы. // Вестник Московского университета. Серия 18. Социология и политология. 2011. №4. - Б.173.
7. Парк Р.Э. Разум бродяги: размышления о связи ментального с пространственным передвижением. // Социальные и гуманитарные науки. Сер. 11. Социология. 1997. № 4. - С. 158-162.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.